

BOLALARDA BRONXIT KASALLIGI ALOMOTLARI.

Alfraganus University Tibbiyot fakulteti

Farmatsiya yo'nalishi 2 –kurs talabasi

Sa'dullayeva Saida Jasurbek qizi

Ilmiy rahbari dots.Qalandarov Qobil Suyarovich

Toshkent shahar Alfraganus University

Annotatsiya: Ushbu, maqolada bronxial astma kasalligini bolalarda kelib chiqishi sabablari haqida bayon etilgan. Bronxit — [o'pkada bronxlar](#) (katta va o'rta kattalikdagi havo yo'llari) yallig'lanishi. Bu yo'talni keltirib chiqaradi. Bronxit odatda [burun](#), [quloq](#), [tomoq](#) yoki sinuslarda [infeksiya](#) sifatida boshlanadi. Keyin infeksiya bronxga tushadi. Alomatlar orasida [yo'tal](#), [balg'am](#), [xirillash](#), nafas qisilishi va ko'krak og'rig'i mavjud.

Kalit so'zlar: O'RVI etiotrop virus allergen simptomatik

Bolalardagi bronxit - nafas yo'llarining pastki tuzilmalarining o'tkir, subakut yoki surunkali yallig'lanish kasalligi, bronxlarning o'zlari. Aksariyat hollarda yallig'lanish tabiatan sof yuqumli, ammo ba'zi hollarda patologik jarayonning kelib chiqishining boshqa variantlari mavjud.

Bronxitni davolash – uzoq muddat davom etuvchi qiyin jarayondir. Har qanday holatda ham malakali shifokor tavsiyalari kerak bo'ladi, chunki kasallikning turli ko'rinishlarida o'ziga xos davo muolajalaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Davo muolajalari ham o'z navbatida har xil bo'ladi: etiotrop – kasallik keltirib chiqaruvchi omilni yo'qotish (virus yoki bakteriya), simptomatik davo – bola hayotiga xavf soluvchi belgilarni bartaraf etish, obstruktiv bronxit va bronxiolit holatida Virus sababli kelib chiqqan bronxit odatda – etiotrop davolanmaydi. Ammo, gripp virusi qo'zg'atgan bronxit arbidol, relenza yok tamiflyu kabi preparatlardan foydalansa bo'ladi. O'RVI infeksiyasi rinovirus, adenovirus, paragripp virusi) chaqirgan bronxit etiotrop davosi mavjud emas, shu sababli kasallik ko'pincha simptomatik davolanadi. Ba'zi hollarda shifokor tomonidan – immun tizimi ishini kuchaytiruvchi vositalar buyurilishi mumkin. Ammo, bu kabi preparatlar qat'iy ravishda shifokor tomonidan buyuriladi, chunki bu vositalarning nojo'ya ta'sirlari ham bor shifoxonada davolanish taviya etiladi.

Bolalarda o'tkir bronxit davosida avvalo shilliq qavatlar yallig'lanishi va yo'talni bartaraf etishi kerak. Shuni ham unutmaslik zarur – yo'tal organizmning himoya mexanizmi hisoblanadi, yo'tal orqali organizm yot jismlardan xalos bo'lishga harakat qiladi (virus, bakteriya, allergen yoki toksik modda bo'lishidan qat'iy nazar). Shu sababli shilliq qavatlarda ko'plab shilliq ishlab chiqariladi va bu balg'am

ko'inishida organizmdan chiqarilib yuboriladi. Yagona muammo shu balg'amning juda yopishqoqligi va ko'chishi qiyinligida, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar o'pkasi va bronxlari kuchsiz bo'lganligi sababli yo'tal bilan balg'amni ajrata olmaydilar. Balg'am ko'chishini osonlashtirish uchun mukolitiklar va balg'am ko'chiruvchi preparatlardan foydalaniladi. Mukolitik vositalar (ASS, Ambrogeksal, Bromgeksin) balg'amni yumshatadi va ko'chishini osonlashtiradi. Balg'am ko'chiruvchi preparatlar (Askoril, Gerbion, Gedeliks, Prospan, Doktor Mom) yo'tal vaqtida balg'amning nafas yo'llaridan ko'chishini osonlashtiradi. Bu kabi preparatlarning ko'pchiligi dorivor o'simliklar asosida tayyorlanadi. Bundan tashqari, yo'talga qarshi ba'zi preparatlar bosh miyadagi yo'tal markazini bloklab qo'yish xususiyatiga ega. Bu kabi preparatlar uzoq muddat davom etuvchi quruq yo'tal kuzatilganda buyuriladi. Quruq yo'tal kasallikning boshlang'ich belgisi. Ammo, nam yo'tal vaqtida balg'am ajralishi kuzatiladigan vaqtda yo'tal to'xtatuvchi preparatlar qabul qilish mumkin emas. Chunki bu kabi vositalar yo'tal markazini bloklab qo'yadi va balg'am ajralib chiqishiga imkon bermaydi.

Bronxlar bo'shlig'ini kengaytiruvchi preparatlar (berodual, eufillin) bronx shoxlari spazmida qo'llaniladi. Ular aerosol ko'inishida ingalyatsiya qilish uchun yoki tabletka ko'inishida bo'lishi mumkin. Yallig'lanishga qarshi vosita sifatida ichimlik sodasi va tuzli ingalyatsiyalarni keltirish mumkin. Haroratni tushiruvchi, og'riqsizlantiruvchi va nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar (parasetamol, ibuprofen va ularning analoglari) bolalarga faqatgina tana harorati 38-38,5 oC dan oshgan vaqtda berish tavsiya etiladi. 38 oC dan past holatlarda bolalarga bu kabi vositalar berish shart emas, organizm o'zi mustaqil ravishda infeksiya bilan kurashayotgan bo'ladi. Aspirin va analgin kabi preparatlarni bolalarda qo'llash mumkin emas.

Kuchli yallig'lanish holatlarida shifokor gormonal yallig'lanishga qarshi vositalarni ham buyurishi mumkin. Bronxitning allergik ko'inishida antigistamin preparatlarda foydalaniladi, ular shilliq qavatlar shishini kamaytiradi. Bolalarda bronxitni faqatgina dori preparatlari yordamida davolash mumkin deb o'ylasangiz adashasiz. Kasallikni butunlay asoratlarsiz davolash uchun bir qator chora tadbirlarga rioya etish zarur. Birinchi navbatda suyuqlik ichishni ko'paytirish kerak – odatdagi hajmdan 2 marotaba ko'proq suyuqlik ichish tavsiya etiladi, chunki tana harorati ko'tarilganda organizm suvsizlanadi. Bundan tashqari, suyuqliklar organizmdan toksinlar chiqib ketishini ta'minlaydi. Bolalarda obstruktiv bronxitda hansirash yuzaga chiqqan vaqtda o'pkalar orqali suyuqlik ajralib chiqishi ortadi, bunday holatda ham regidratatsiya chora tadbirlaridan foydalanish kerak.

Ushbu maqoladan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda nafas qisilishi, o'pkada balkim o'pkada unga yaqin bo'lgan

aʼzolarga ham zarar yetkazishi haqida biroz boʻlsa ham maʼlumotlarni berishga harakat qildik

Foydaniilgan adabiyotlar

1. „[Bronchitis](#)“. *NHLBI*. Qaraldi: 2019-yil 9-iyun.
2. ↑ Kin, S (1 October 2016). "[Acute Bronchitis](#)". *American Family Physician* **94** (7): 560–565. [PMID 27929206](#).
3. ↑ „[Antibiotics Aren't Always the Answer](#)“ (en-us). *Centers for Disease Control and Prevention* (2017-yil 25-sentyabr).